

20-May, 2025-yil

## ZAMONAVIY DAVRDA AN'ANAVIY IJROCHILIKNING AHAMIYATI VA UNI ASRASH MUAMMOLARI

*Respublika musiqa va san'at texnikumi*  
**G'ulomov Nizomiddin**  
**Yunusov Doniyor**

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada zamonaviy davrda an'anaviy ijrochilikning ijtimoiy-madaniy ahamiyati va uni asrashdagi dolzarb muammolar yoritilgan. Muallif an'anaviy san'atning yosh avlod tarbiyasidagi o'rni, ustoz-shogird tizimining zaiflashuvi, zamonaviy texnologiyalarning ta'siri va ijodiy merosni tijoratlashtirish kabi omillarni tahlil qiladi. Maqola orqali an'anaviy ijrochilikni asrash bo'yicha tavsiyalar ham beriladi.

**Kalit so'zlar:** An'anaviy ijrochilik, madaniy meros, ustoz-shogird maktabi, maqom, xalq musiqasi, san'at tarbiyasi, globallashuv, ommaviy madaniyat, yoshlar, milliy qadriyatlar.

An'anaviy ijrochilik – bu xalq ruhiyatining, tarixiy xotirasining va madaniy o'zligining tirik ko'zgusidir. O'zbek xalqining ko'p asrlik og'zaki va musiqiy merosi, jumladan maqom, doston, xalq qo'shiqlari, sozandachilik va raqs san'ati an'anaviy ijrochilikning asosiy ko'rinishlaridir. Bunday ijod namunalarini saqlash va rivojlantirish, ularni zamonaviy yosh avlod ongiga singdirish bugungi davrda dolzarb masalaga aylangan.

Zamonaviylik sari intilgan jamiyatda o'zlikni anglash va asrab qolish muhim. An'anaviy ijrochilik bu borada kuchli ma'naviy poydevor bo'lib xizmat qiladi. U xalqning tarixi, diniy va axloqiy qadriyatlarini aks ettiradi. Ayniqsa, yosh avlodga milliy o'zlikni anglash, Vatanga sadoqat, estetik did va musiqiy tarbiya berishda an'anaviy san'at katta ta'sir ko'rsatadi.

Bugungi kunda O'zbekistonda maqom festivallari, xalq ijodiyoti tanlovlari, folklor ekspeditsiyalari an'anaviy ijrochilikni keng targ'ib qilish va uni xalqaro maydonga olib chiqish yo'lida muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Shu bilan birga, bu sohada qator muammolar mavjud:

1. Yoshlar orasida qiziqishning kamayishi – globallashuv va ommaviy madaniyatning ta'siri natijasida ko'pchilik yoshlar zamonaviy musiqaga ko'proq moyillik bildiradi, an'anaviy san'at esa eskilik deb qaraladi.
2. Ustoz-shogird tizimining zaiflashuvi – ko'plab tajribali ustozlar yetarli e'tibor va qo'llab-quvvatlash topmayapti, bu esa meros uzviyligiga tahdid tug'dirmoqda.
3. Ijrochilik maktablarining cheklangan imkoniyatlari – ayrim hududlarda an'anaviy san'atga ixtisoslashgan ta'lim muassasalari, zamonaviy studiyalar va asbob-uskunalar yetishmaydi.
4. San'atning tijoratlashtirilishi – san'atni faqat daromad manbai sifatida ko'rish, ijodiy qadriyatlarni yo'qotish xavfini tug'diradi.

20-May, 2025-yil

## **XULOSA**

An’anaviy ijrochilikni asrash, uni yoshlar orasida ommalashtirish, ijodkorlarga moddiy va ma’naviy ko‘mak berish, zamonaviy texnologiyalar yordamida targ‘ib qilish – bu milliy madaniyatimizni saqlab qolishning muhim garovidir. Zero, o‘z tarixiga, san’atiga va madaniyatiga e’tibor bergen xalqgina kelajakda mustahkam jamiyat barpo eta oladi.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

1. Abdug‘aniyev H. Maqom san’ati va uning tarixi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2007.
2. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008.
3. Bobojonov A. Milliy meros va zamonaviylik. – Toshkent: Fan, 2015.
4. “Maqom san’atining bugungi holati va istiqbollari” – Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. – 2022.